



PROSPECTS FOR FURTHER STRENGTHENING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE PROSECUTION AUTHORITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN BASED ON CHINA'S EXPERIENCE

Marjonoy Bakirova

Master's student

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: bakirovamarjona@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: legal status, service procedure, KPI system, prosecutorial efficiency.

Received: 01.05.25

Accepted: 03.05.25

Published: 05.05.25

Abstract: This article analyzes the prospects for strengthening the organizational and legal foundations of the activities of the prosecution authorities of the Republic of Uzbekistan based on China's experience. It discusses the improvement of the legislation regulating prosecutorial activities, the necessity of establishing a unified law on the procedure of service, the transition to evaluating prosecutorial efficiency based on qualitative indicators, and the implementation of the KPI system. Proposals are also made regarding the establishment of a separate performance evaluation department within the structure of the General Prosecutor's Office.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARINING TSHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA YANADA MUSTAHKAMLASH ISTIQBOLLARI

Marjonoy Bakirova

magistratura bosqichi tinglovchisi

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: bakirovamarjona@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: huquqiy maqom, xizmatni o'tash, KPI tizimi, prokuror samaradorligi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash istiqbollari Xitoy tajribasi asosida tahlil qilinadi. Prokuratura

faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning takomillashtirilishi, xizmatni o'tash tartibini yagona qonun bilan belgilash zarurati, prokuratura organlari samaradorligini baholash tizimini sifat ko'rsatkichlariga o'tkazish va KPI tizimini joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Bosh prokuratura tarkibida alohida samaradorlikni baholovchi boshqarmaning tashkil etilishi bo'yicha takliflar berilgan.

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО УКРЕПЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ ОСНОВ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ОПЫТА КИТАЯ

Марджоной Бакирова

студент магистратуры

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: bakirovamarjona@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: правовой статус, прохождение службы, система КPI, эффективность прокурора.

Аннотация: В данной статье анализируются перспективы укрепления организационно-правовых основ деятельности органов прокуратуры Республики Узбекистан на основе опыта Китая. Рассматриваются вопросы совершенствования законодательства, регулирующего деятельность прокуратуры, необходимость установления единого закона о порядке прохождения службы, перехода к оценке эффективности деятельности прокуратуры на основе качественных показателей и внедрения системы КPI. Также представлены предложения по созданию отдельного управления по оценке эффективности в структуре Генеральной прокуратуры.

Kirish: Huquqiy tartibot har qanday davlatda iqtisodiy farovonlik va siyosiy-huquqiy barqarorlikka erishishdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aynan qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash orqali davlat o'z funksiyalarini samarali bajarib, jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlaydi hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini kafolatlaydi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida qonuniylikni ta'minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda faoliyat oshkoraligi va jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash vazifasi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari bugungi kunda jahondagi integratsiya jarayonlari huquqni muhofaza qilish sohasiga ham shiddat bilan o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu jarayon ayniqsa tarixiy, madaniy va etnik jihatdan yaqin bo'lgan O'zbekiston va Xitoy kabi davlatlarning huquq-tartibot idoralari hamkorligini mustahkamlashga, qonunchilik tajribasini o'rganish orqali ikkala davlat prokuratura organlarining davlat tizimidagi o'rni, maqomi, funksiyalari va vakolatlarini qiyosiy tahlil qilishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2023-yilda O'zbekiston va Xitoy prokuraturalari o'rtasida 2024-2025-yillarga mo'ljallangan Hamkorlik dasturi, 2017-yilda esa ikkala davlat prokuratura idoralari kadrlarni tayyorlash muassasalari o'rtasida o'zaro anglashuv Memarandumi imzolanganligi ham buning yaqqol misoli bo'la oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda avvalo, prokuratura organlarining huquqiy holatini yanada mustahkamlash istiqbollari haqida so'z yuritganda nafaqat xato va nuqsonlar, balki prokuraturani takomillashtirish, ish unumdorligini oshirish, fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida o'z funksiyalarini samarali bajarishi bilan bog'liq masalalar ham nazarda tutiladi. Bu masalalar bir tomondan, jamiyat va davlat hayotidagi voqeliklar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, prokuraturaning faoliyatida yuz beradigan jarayonlarga ham taaluqlidir.

Shu bilan birga kelgusida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot maqsadlari hamda huquqiy ehtiyojlarini hisobga olib, prokuratura organlari vazifalarini aniqlashtirish va maqbullashtirish bo'yicha yetakchi xorijiy davlatlarning tajribalari asosida chuqur tadqiqotlar olib borilishi zarur.

Ma'lumki prokuratura organlari faoliyatining asosiy huquqiy manbasi O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni haqida fikr yuritganda, jamiyat va davlatning manfaat va ehtiyojlariga mos ravishda uning muntazam ravishda o'zgarib, takomillashib borishini qayd etish lozim. Mazkur qonun qabul qilinganligiga 20 yildan oshgan bo'lib, bu davrda nafaqat mamlakatimizda, balki prokuratura tizimida ham ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu qonunga takomillashuv bo'yicha qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lsa-da, u xalqaro ilg'or standartlarga va mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot ehtiyojlariga to'liq javob bermaydi.

Jumladan, birinchidan amaldagi qonun prokuraturaning vazifalarini belgilash, faoliyatini tashkil etish, boshqarish, shaffoflik va xolislikni ta'minlash, prokurorlarning mustaqilligi, hisobdorligi, ish unumdorligini baholash, kadrlarni ta'nlash, tayinlash, ularning malaksini va ma'suliyatini oshirish kabi masalalarni zamonaviy usullarda tartibga solish borasida xalqaro standartlarga mos emas.

Ikkinchidan, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijri buyrosi faoliyati yuqoridagi qonun bilan emas, balki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va Qarorlari bilan tartibga solinadi. Vaholanki ushbu

idoralar mukammal shakllangan, tegishli kompetensiyaga ega bo'lgan huquqni muhofaza qilish organlari sifatida Bosh prokuratura tizimiga kiradi. Shu bois, mazkur organlar faoliyatining asosiy masalalari ham "Prokuratura to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.[1]

Uchinchidan, prokuratura organlarida xizmatni o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-sentyabrdagi PQ-2036-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risida" gi nizam bilan belgilangan.[2]

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro buyrosi xodimlarining xizmati ham tegishlicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-sonli [3] Farmoni hamda 2017-yil 30-maydagi PQ-3016-sonli Qarori [4] bilan tasdiqlangan nizomlar bilan tartibga solingan.

Bizningcha, prokuraturada xizmatni o'tash tartibi bir yoki bir nechta qonunosti hujjati bilan emas, balki, yagona qonun bilan belgilanishi lozim.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi"ning 17-bandiga muvofiq,[5] 2019-yil 1-dekabrgacha "Prokuratura organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqish ko'rsatilgan edi. Dasturda ushbu qonunda prokuratura organlari va muassasalarida xizmat qilish uchun institutsional mexanizmlarni mustahkamlash, kadrlarni shaffof tanlovlar asosida saralab olishning mutlaqo yangi mexanizmini joriy etish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf qilish belgilangan edi. Ammo ushbu qonun loyihasi bugungi kungacha ishlab chiqilmagan va bu amaliyotda yuqoridagi bo'shliqlarga sabab bo'lmoqda.

Endi esa ushbu masala yuzasidan Xitoyning qonunchilik tajribasiga e'tibor qaratadiga bo'lsak, yuqoridagi tahlillar davomida ham ko'rib o'tganimizdek Xitoy prokuratura organlarining faoliyati faqatgina yagona "Xitoy Xalq Respublikasi Davlat prokurorlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Xitoyda prokuratura organlari xodimlari davlat fuqarolik xizmatchisi hisoblanadi va shuning uchun ham Xitoy prokuratura organlarida xizmatni o'tash tartibi to'liq xuddi boshqa davlat xizmatchilariniki kabi "Davlat fuqarolik xizmatchilari to'g'risida"gi qonunda [6] o'z aksini topgan. Mamlakatimizda ham "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida" qonun mavjud ammo ushbu qonun prokuratura organlari xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi. Demak, bundan kelib chiqadiki yuqoridagi O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi yagona qonun loyihasini amalda tezroq ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunining 20-moddasiga muvofiq, prokurorning nazorati faqat qonunlar ijrosiga qaratilgan bo‘lib, *qonunosti hujjatlar - Davlat rahbari va hukumatning huquqiy hujjatlarinin ijrosi nazorat predmeti sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan.*[7] (O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining 7-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlar hisoblanadi [8])

Biroq, bugungi kunda amaliyotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari ijrosi bilan bog‘liq vazifalar prokuratura organlari nazorat faoliyatining asosiy qismini tashkil etmoqda. Bundan kelib chiqadiki, prokuratura organlarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari ijrosi bilan bog‘liq vazifalarini qonuniyligini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuniga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi lozim.

Xitoy Xalq Respublikasi qonunchiligiga nazar soladigan bo‘lsak, XXR “Davlat prokurorlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq prokuratura organlarining nazorat predmet sifatida mamalaktda faqatgina qonunlar ijrosi ustidan nazorat belgilab qo‘yilgan va prokuratura organlari zimmasiga ushbu qonunda nazarda tutilmagan boshqa vazifalarni yuklatish mumkin emasligi mustahkamlab qo‘yilgan.[9] Ammo shuni ham e‘tiborga olish kerakki yuqoridagi tahlillarda ham keltirib o‘tilganidek, Xitoy Xalq Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asosi sifatida Xitoy Xalq Respublikasi Oliy Xalq prokuraturasi bosh prokurorining buyruqlari ko‘zda tutilmagan. Ammo O‘zbekiston prokuratura organlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari, prokuratura organlari va muassasalarida xizmatni o‘tashga doir normativ-huquqiy hujjatlar, Bosh prokuratura hay‘atining qarorlari, Bosh prokuror buyruqlari, farmoyishlari, ko‘rsatmalari talablari asosida olib boradi. Bu ham o‘z navbatida Xitoy prokuratura organlarining huquqiy holati mamlakatimiz prokuratura organlariga nisbatan ancha sodda va tushunarli tizim asosida tashkil etilganligidan dalolat beradi.

Ushbu tahlillardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, muqaddam prokuror nazoratisiz ijroni tashkil etish qiyin bo‘lgan yuqoridagi qonunosti aktlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish funksiyasini (agarda qonun bilan belgilangan alohida holatlar bo‘lmasa), bugungi sharoitda, bu jarayonni “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunda aniq tartibga solgan holda prokuraturaning zimmasidan soqit qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qonunosti hujjatlari ijrosi ustidan prokuraturaning rolini o‘ta dolzarb vazifalar bo‘yicha, shu jumladan, adliya va boshqa

mas'ul nazorat qiluvchi idoralarning faoliyatida qonuniylik, mansabdor shaxslarning javobgarligini amalga oshirish kabi maqsadlarda saqlab qolish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, prokuratura organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash tizimiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bu tizm bugungi kunda amalda mavjud, biroq prokurorlar faoliyati davomida qaysi mezonlarga ustuvor ahamiyat berishlari lozimligi, qaysi holatda ular yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi aniq belgilanmagan. Shuningdek, baholashning ball ko'rinishida bo'lmasligi ham ma'lum noaniqliklarga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda prokuratura rahbariyati o'z xodimlari ishlarining samaradorligini, birinchi navbatda qonun buzilishlari soni va prokurorning ularga nisbatan qo'llagan ta'sir choralari (protestlar, taqdimnomalar, ogohlantiruvlar, da'vo arizalari)ning o'tgan yilning shu davriga nisbatan soniga qarab aniqlashadi. Mazkur mezonda asosiy e'tibor ta'sir choralarning son jihatdan qanchalik qo'llanilganligiga borib taqaladi. Biroq, bu yerda mantiqiy qarama-qarshiliklar kelib chiqadi. Prokuraturaning vazifasi qonun ustuvorligini ta'minlash ekanligidan kelib chiqsak, *prokuratura tomonidan aniqlangan qonunlar buzilishi sonining doimiy o'sishi hamda ularga qo'llanilgan ta'sir choralarning son jihatdan o'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'pligi, aslida prokurorlarning qonun ustuvorligini ta'minlay olmayotganligidan dalolat beradi.*

Statistik ko'rsatkichlarga asoslangan baholash tizimining yana bir yomon tarafi shundan iboratki, prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini erishilgan real samarani tahlil qilmasdan turib, faqat son ko'rsatkich bo'yicha baholash mumkin emas. Bu mutlaqo imkonsiz hisoblanadi. Jumladan, bir tuman prokuraturasi tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarning manfaatini ko'zlab 100 dan ortiq da'vo arizalari bilan sudga murojaat qilingan bo'lsa, biroq xuddi shu munosabat doirasida boshqa bir tuman prokuraturasi tomonidan 10 ta da'vo arizasi sudga kiritilgan. Bu yerda faoliyatga baho berishda sonlarga emas, buzilgan huquqlarni qanchalik tez va sifatli tiklanishiga alohida e'tibor berish lozim. Balki 10 ta da'vo ariza kiritilgan tumanda o'tgan yillardagi qonunbuzarliklar o'rganilishi hamda profilaktik tadbirlar to'g'ri amalga oshirilganligi uchun huquqbuzarliklar kamaygandir yoki ularning sodir etilishi oldi olingandir. Bu faoliyat samaradorligini baholashda albatta inobatga olinishi shart. Bugungi kunda aksariyat prokuratura organlarida mavjud bo'lgan yondashuvga asoslanadigan bo'lsak, 100 ta da'vo arizasi bergan prokuraturaning faoliyati samaraliroq ishlaydi deb baholanadi.

Bundan tashqari statistik ko'rsatkichlarga baho berishning yana bir salbiy jihati – “sonni pasaytirmaslik” tamoyilidir. Buning natijasida har yili prokuraturaning har bir xodimiga ish yuklamasi ortib boradi, bu esa prokuratura xodimlarining doimiy ravishda “bosimda” ishlashiga sabab bo'ladi.

Bu borada Xitoy tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Xitoyda davlat xizmatchilarining shu jumladan prokuratura organlari xodimlarining ham faoliyatini baholashning KPI (Key performance indicator – eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari) tizimiga bosqichma-bosqich to'liq o'tish amalga oshirilmoqda. Bu tizimda asosiy baho xodimlar tomonidan erishilgan sifat ko'rsatkichlariga va ular tomonidan mazkur ko'rsatkichlarga erishish uchun ketgan vaqtga qarab belgilanadi. Shu bilan birga qilingan ishlarning samaradorligi yuqori bo'lsa xodim rag'batlantiriladi, aksincha bo'lsa, unga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishi mumkin. Ya'ni bunday baholashda mezon songa emas, sohadagi erishilgan natijaga qarab belgilanadi. Masalan, bir xodim tomonidan yuzlab ta'sir choralari qo'llanilgan bo'lsada, o'sha sohada qonunbuzilishlar kamaymasa, uning faoliyati samarali deb topilmaydi.

Shu bilan birga KPI tizimi orqali baholashda qaysi xodimlar qaysi yo'nalishda zaif yoki kuchli ekanligini aniqlab, ularni malaka oshirish, qayta tayyorlash masalalarini oqilona hal qilish mumkin. KPI tizimining yana bir afzalligi baholash mezonlari oldindan belgilanganligi sababli, har bir xodim nima mezonlar asosida baholanishini aniq biladi. Bu esa xodimlar o'rtasida noroziliklarni kamaytiradi va tizimga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Bundan tashqari prokuratura organlari faoliyati samaradorligini baholashda yan bir e'tibor berilishi shart bo'lgan holat ularning faoliyatini tegishli ball tizimida baholash. Bu amaliyot bugungi kunda Xitoy prokuratura organlarida xodimlarning faoliyat samaradorligini baholashda ijobiy amaliyot sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. Ma'lumki prokuror har bir faoliyat sohasiga birdek e'tibor berolmaydi va bu imkonsiz hisoblanadi. Shuning uchun xodimning faoliyatini asosiy ustuvor vazifalar bajarilgan bo'lsa, shu yo'nalishlarga yuqori ball berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun prokuror fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlagan, ammo aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish borasidagi ishlarining samaradorligi biroz yetarli emas. Bunday holatda xodimning faoliyatiga baho berilayotganda, ustuvor vazifaning yuqori darajada bajarilganligi birinchi navbatda inobatga olinishi lozim.

Yuqoridagi mavjud muammolarni tahlil qilish orqali ularni bartaraf etish bo'yicha prokuratura organlari xodimlarining faoliyati samaradorligini baholashning son ko'rsatkichlaridan to'la voz kechgan holda sifat ko'rsatkichga to'liq o'tishni ta'minlash zarur. Shuningdek, baholashda faqat statistik ko'rsatkichlar cheklanib qolinmasdan ekspertlar bahosi va fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalari fikri orqali o'tkazilgan sotsiologik so'rovlardan olingan natijalar ham hisobga olinishi lozim.

Shunga ham alohida e'tibor qaratish kerakki, Xitoyda prokuratura organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash va baholash natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga mas'ul bo'lgan Xitoy Oliy Xalq prokuraturasi markaziy tuzilmasida alohida "Prokuratura

organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash” boshqarmasi faoliyat ko’rsatadi. Ushbu boshqarma har chorakda prokuratura organlari xodimlarining samaradorligini ish sifati, qonuniylikka rioya qilish, jamoaviy ishdagi ishtiroki, muddatlarga rioya qilinishi va qonunda belgilangan boshqa ko’rsatkichlar asosida baholab boradi. Ushbu baholash natijalari xodimlarning rag’batlantirilishi, lavozimlarining oshirilishi yoki boshqa intizomiy choralar ko’rilishiga asos bo’ladi.[10]

Budan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ham prokuratura organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash va baholash natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga mas’ul bo’lgan alohida tarmoq sifatida Bosh prokuraturaning markaziy tuzilmasida “Prokuratura organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash” boshqarmasini tashkil etish maqsadga muvofiq bo’ladi. Mazkur boshqarma faqatgina Bosh prokuraturaga bo’ysunib, xodimlarning faoliyat samaradorligini baholashda yagona vakolatli tarmoq bo’lishi lozim. Taklif etilayotgan boshqarma ekspertlari tomonidan baholashning yagona huquqiy mezonlari Bosh prokurorning sohaviy buyrug’i ishlab chiqilib, biroq baholashning umumiy asoslari qonun bilan belgilanishi lozim. Ushbu mezonlarga quydagilarni kiritishimiz mumkin:

- Prokuror vakolatlarinin qo’llash yoki qo’llamslikning qonuniyligi;
- Prokuror tomonidan qonunbuzilishlarga nisbatan ko’rilgan choralarning qonuniyligi;
- Aniqlangan qonunbuzilishlarga nisbatan choralarning o’z vaqtida va to’liq qo’llanilganligi;
- Javob choralarining yetarililigi va shu kabi boshqa muhim masalalar.

Bundan tashqari, yuqorida ham keltirib o’tilganidek prokuratura organlari faoliyatini baholashda ustuvor yo’nalishlar doirasini belgilash hamda ball berish tizimiga KPI ni joriy etish maqsadga muvofiq bo’ladi. Shu bilan birga prokurorlar faoliyatining samaradorligiga qarab oylik maosh va rag’batlantirishni joriy qilish va xodimlar o’rtasida sog’lom raqobatni shakllantirish ham bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa o’rnida quydagi takliflar ishlab chiqilidi:

✓ O’zbekiston Respublikasi “Prokuratura to’g’risida”gi Qonunining 2-moddasini (Prokuratura organlarining asosiy vazifalari) quydagicha to’ldirish taklif etiladi: “Prokuratura organlari zimmasiga O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifalarni yuklatilishiga yo’l qo’yilmaydi”. Chunki, prokuratura organlarining vazifalari, uning konstitutsiyaviy organ ekanligidan kelib chiqqan holda, faqat Konstitutsiya va qonunlar bilangina belgilanishi, shuningdek, aniq, qat’iy, ixcham va natijadorlikka yo’naltirilgan bo’lishi lozim. Shu bilan birga prokuratura organlari zimmasiga qonunda nazarda tutilmagan “qo’shimcha” va “xos bo’lmagan” vazifalarning yuklatilishi uning faoliyati samaradorligini pasaytirish bilan birga, qonuniy funksiyalarini to’laqonli va sifatli bajarilishiga to’sqinlik qiladi. Bunday amaliyot esa

funksiyalarni takrorlanishiga, boshqaruv resurslarini behuda va noo‘rin sarflanishiga olib keladi. Ushbu taklif etilayotgan qoida yuqoridagi tahlillarda keltirib o‘tilganidek Xitoy tajribasida ham mavjud.

✓ Xitoy tajribasidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunining 21-moddasiga quydagicha o‘zgartirish kiritish va to‘ldirish taklif etiladi: “Qonunlar ijrosini tekshirish elektron shaklda onlayn (masofaviy) o‘tkazilishi ham mumkin”. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida har bir sohani raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralayotgan bir paytda respublikamizda prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatida ham raqamlashtirish, elektron shaklda onlayn(masofaviy) ishni tashkil etish orqali prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatida hujjatlar aylanishi uchun ketadigan vaqt qisqartiriladi, mehnat unumdorligi va samaradorligi oshadi hamda qonunbuzilish holatlariga onlayn munosabat bildirish imkoniyati yaratiladi.

✓ Prokuratura organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini Xitoy tajribasi asosida isloh qilish bo‘yicha yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, Bosh prokuratura huzurida “Prokuratura organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash” boshqarmasini tashkil qilish va yangi tahrirda qabul qilinishi belgilanayotgan “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning 45-moddasiga quydagicha o‘zgartirish kiritish taklif etilmoqda. Xususan, 45-moddaning 1-qismini O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining, “O‘zbekiston Respublikasi Transport prokurorining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining, shuningdek viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlarining, tumanlar, shaharlar prokurorlarining hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlarning faoliyati Bosh prokuratura huzuridagi “Prokuratura organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini baholash boshqarmasi” tomonidan ularning vakolat muddati davomida kamida ikki marta kompleks baholash tizimi bo‘yicha o‘rganib chiqiladi” deb o‘zgartirish kiritish taklif etiladi.

✓ Xitoy prokuratura organlarining ijobiy tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlarining faoliyat samaradorligini baholashning KPI (Key performance indicator – eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimi asosida tegishli ball bilan baholashga o‘tish. Bu tizimda asosiy baho xodimlar tomonidan erishilgan sifat ko‘rsatkichlariga va ular tomonidan mazkur ko‘rsatkichlarga erishish uchun ketgan vaqtga qarab belgilanadi. Shu bilan birga qilingan ishlarning samaradorligi yuqori bo‘lsa xodim rag‘batlantiriladi, aksincha bo‘lsa, unga nisbatan intizomiy choralar qo‘llanilishi mumkin. Bunday baholashda mezon songa emas, aksincha sifatga ya‘ni sohadagi erishilgan natijaga qarab belgilanadi.

Demak, bundan kelib chiqadiki O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining huquqiy holatini mustahkamlash uchun amaldagi qonunchilikni xalqaro standartlarga mos ravishda yangilash zarur. Xususan, prokuraturada xizmatni o‘tash tartibini alohida qonun asosida

belgilash va qonunosti hujjatlar ustidan nazorat funksiyasini aniq chegaralash lozim, hamda prokuratura xodimlarining samaradorligini baholashda sifat ko'rsatkichlariga asoslangan KPI tizimini joriy etish, bu borada Bosh prokuratura tarkibida maxsus baholash boshqarmasini tashkil etish, shuningdek, ustuvor yo'nalishlarga muvofiq ball tizimini joriy qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 maydagi "Byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini Takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5446-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2018 y., 06/18/5446/1251-son; 11.01.2019 y., 06/19/5624/2471-son, 16.03.2019, 06/19/5690/2772-son; 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son; 25.11.2020 y., 06/20/6118/1562-son.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3016-sonli Qarori 30.05.2017 // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 22-son, 425-modda, 25-son, 531-modda

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 maydagi PF-5446-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to'g'risida"gi Nizom 23.05.2018 // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.11.2020 y., 06/20/6118/1562-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 maydagi PF-5446-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to'g'risida"gi Nizom 23.05.2018 // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.11.2020 y., 06/20/6118/1562-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 maydagi "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3016-sonli Qarori bilan tasdiklangan "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to'g'risida"gi Nizom // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 22-son, 425-modda, 25-son, 531-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat Dasturi"ning 17-bandi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son

6. "Civil Servant Law of the People's Republic of China"
<https://www.npc.gov.cn/englishnpc/c23934/202012/4c1a1f5e0a8b4e3e8f3a1e5e0a8b4e3e.shtml>

7. “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2025y. 03/25/1022/0083-son. [URL:http://lex.uz/docs/-106197](http://lex.uz/docs/-106197)
8. O‘zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida"gi Qonuni (7-modda) // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.04.2025-y., 03/25/1054/0329-son).
9. Xitoy Xalq Respublikasining 1995-yil 1-iyuldagi “Davlat prokurorlari to‘g‘risida”gi qonuni // URL: <http://russian.china.org.cn/russian/33374.htm>
10. <https://www.chinalawtranslate.com/>